

KOLLABORATIV KOMPETENSIYANING TARKIBIY-STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Bekbagambetova Jansaya Ruslanovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18710986>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kolloborativ kompetensiyaning tarkibiy-strukturaviy xususiyatlari hamda uning ta'lim jarayonidagi o'rni yoritiladi. Kollaborativ kompetensiya hamkorlikda ishlashga oid bilim, ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalar, rollarni taqsimlash va mas'uliyatni bo'lishish, shuningdek, refleksiya va o'z-o'zini baholash elementlaridan tashkil topgan murakkab ko'p komponentli tuzilma sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: kolloborativ kompetensiya, kommunikativ ko'nikmalar, refleksiya, interaktiv, shaxsiy javobgarlik, rollarni taqsimlash.

THE STRUCTURAL AND COMPOSITIONAL CHARACTERISTICS OF COLLABORATIVE COMPETENCE AND ITS ROLE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article sheds light on the compositional and structural characteristics of collaborative competence and its role in the educational process. Collaborative competence is interpreted as a complex, multi-component structure composed of knowledge related to working in collaboration, socio-communicative skills, role distribution and responsibility sharing, as well as elements of reflection and self-assessment.

Keywords: collaborative competence, communicative skills, reflection, interactivity, personal responsibility, role distribution.

СТРУКТУРНО-КОМПОЗИЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ КОМПЕТЕНЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА И ЕЕ РОЛЬ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются композиционные и структурные характеристики компетенции совместной деятельности и ее роль в образовательном процессе. Коллаборативная компетентность интерпретируется как сложная, многокомпонентная структура, включающая в себя знания о совместной работе, социально-коммуникативные навыки, распределение ролей и разделение ответственности, а также элементы рефлексии и самооценки.

Ключевые слова: компетенция совместной деятельности, коммуникативные навыки, рефлексия, интерактивность, личная ответственность, распределение ролей.

Zamonaviy umumta'limning asosiy vazifalaridan biri – nafaqat bilim berish, balki o'quvchining shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish, uning o'rganilayotgan bilim va qadriyatlarga munosabatini anglash, shuningdek yangi fikrlar, takliflar va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bunday maqsadga erishish an'anaviy (himoyachi) o'qitish metodlarini o'rniga interaktiv, o'quvchilar o'zaro hamkorligi va faol muloqotiga asoslangan usullarni joriy etishni talab qiladi.

Biz tadqiqot ishimizni umumta'lim maktablari o'quvchilarining kolloborativ kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv ta'lim modeli o'quvchilarni muammoli vaziyatlarni


birgalikda yechishga yo'naltirilgan amaliy vaziyatlarni guruhli modellashtirish orqali amalga oshirishni maqsad qildik. Mana shunday sharoitda o'quvchi faol subyektga aylanib, o'quv jarayonining markazida turib, barcha ishtirokchilarning tengligi va o'zaro hurmati asosidagi hamkorlik munosabatlarini shakllantiradi.

Interaktivlikning yuqori darajasi kooperativ ta'lim – «birgalikda o'rganish» konsepsiyasida ifodalanadi. Pedagogika olimi Sandra L. Renegarning ta'rifiga ko'ra, kooperativ ta'limning mohiyati: "Har birimiz alohida o'rganishdan ko'ra birgalikda o'rgansak, biz ko'prok va tejimliroq bilamiz"[1] degan qoidada mujassamlangan. Kooperativ ta'lim o'zining tashkiliy-metodik jihatidan aniq tartibga solingan o'quv faoliyatidir. Uning asosiy xususiyati – o'quvchilarning birlikdagi ishi jarayonida shaxsiy javobgarlik va o'zaro bogliqlik prinsiplariga ega bo'lishidir.

Bunda har bir o'quvchi nafaqat o'z o'rganishi uchun, balki guruhning barcha a'zolarining umumiy muvaffaqiyati uchun ham mas'uliyatni his etadi.

Kooperativ o'qitishning asosiy usuli kichik guruhlarda faoliyatni tashkillashtirishdir. Bu esa o'quv jarayonining samaradorligi va samarasini oshirishni ko'zda tutgan xolda, guruh a'zolarining o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Shuning uchun, kooperativ ta'limni o'quvchilarning o'zaro ta'siri va yordami asosida o'zlarining va boshqalarning bilimini rivojlantirishga qaratilgan faol va tartibli metodik tizim sifatida tushunish mumkin.

Kolloborativ ta'limning kolloborativ kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyati ushbu asosiy tamoyillarda namoyon bo'ladi. (2.1-rasm)



2.1-rasm. Kolloborativ ta'limning kolloborativ kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyati va tamoyillari

1. *Ijtimoiy o'rganish*: Yod olish, qaytarish va yangi bilimni idrok etish jarayonlarining eng samarali yo'li – uni boshqalar bilan muloqotda, muhokamada va amalda qo'llashdir.

2. *Strukturalangan hamkorlik*: Faoliyat aniq berilgan vazifalar, rollar va tartib-qoidalar doirasida olib boriladi, bu esa erkin va vaqtni behuda o'tkazadigan muloqotdan uni ajratadi.

3. *Shaxsiy javobgarlik*: O'quvchi guruhdagi o'z rolining mazmunini tushunadi va uning bajarilishi uchun javob beradi, shu bilan birga o'z guruhining boshqa a'zolariga ko'mak berishni vazifasini ham his etadi.

Demak, kooperativ ta'lim –bu kolloborativ kompetensiyaning kommunikativ, ijtimoiy-psixologik va refleksiv komponentlarini rivojlantirish uchun eng optimal pedagogik vositadir. U o'quvchilarga nazar-nazariy bilimlarni emas, balki amaliy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan xavfsiz va tashki etilgan muhitni yaratadi.

Keyingi tahlilda biz kooperativ ta'limning ushbu tamoyillarini badiiy-tarixiy asarlar mazmuniga tatbiq etishning alohida usul va texnologiyalarini ko'rib chiqamiz.

Kooperativ ta'limning tashkiliy tarkibi oddiylik va aniqlikka asoslangan bo'lsa-da, uning pedagogik samaradorligi to'g'ri va puxta tayyorgarlikni taqozo etadi. Uning asosiy mexanizmi o'qituvchi tomonidan kichik guruhlarini tuzish, ularga aniq topshiriq va rollarni taksimlash, natijalarni baholash mezonlarini belgilashdan iborat. Namoyon soddaligiga qaramay, jarayon o'quvchilarning o'zaro murojaatlari va guruh ichki dinamikasida murakkab pedagogik vaziyatlarni shakllantiradi.

Ushbu jarayonda o'quvchilar topshiriqning to'lik bajarilishi uchun jamoaviy javobgarlikni anglaydilar va faoliyatning asosiy motivatsion omillari orqali ijobiy o'zaro bogliqlikni xis etadilar:

O'zaro manfaatlilik: "Sizning muvaffaqiyatingiz menikining asosidir". O'quvchi guruhdoshlarining yutuqlari o'zining shaxsiy natijasiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, bunda har bir a'zo o'zgaralar uchun zarur resurs va yordamchiga aylanadi.

Yagona maqsadga intilish: "Hammamiz bitta qayiqdamiz". Guruhning barcha a'zolari jamg'arma natijaga erishish – maslahatli sheriklar tarixiy saxnasini tayyorlash, adabiy qahramon haqida mukammal kollaj yaratish yoki muammoli tarixiy vaziyatga birgalikda yechim topish kabi umumiy vazifa atrofida birlashadi.

Bitimli javobgarlik: "Biz sizsiz buni qila olmas edik". Har bir o'quvchi o'z roli uchun shaxsiy mas'uliyatni anglaydi, chunki uning ishtirokisiz umumiy ish to'lik bo'lmaydi.

Guruhli baholash va qadrlash (Group Processing & Celebration): "Biz sizning muvaffaqiyatingiz bilan quvonamiz!". Jamoaviy natijani muhokama qilish va yutuqlarni birgalikda qadrlash o'quvchilarda guruhga mansublik, hamkorlikda erishilgan g'alabadan bo'lgan tashki va ichki (intrinsik) qonun-qimati shakllantiradi. Demak, kooperativ ta'limning asosiy maqsadi – nafaqat axborotni o'zlashtirish, balki guruhning har bir a'zosini o'z va guruhdoshlarining muvaffaqiyati uchun javobgar bo'lgan, erkin va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashdir. Badiiy-tarixiy asarlar esa ushbu jarayon uchun ideal maydon hisoblanadi, chunki ular tarixiy shaxslarning o'zaro aloqasi, kelishuv va qarama-qarshiliklarning murokakali manzarasini ta'minlab, o'quvchilarni jamiyatdagi haqiqiy ijtimoiy munosabatlar modellarini tahlil va o'rganishga jalb etadi.

L.Nelsonning ta'kidlashicha, texnologiya shubhasiz o'qituvchilar va o'quvchilarga hamkorlikdagi onlayn muhitda to'liq ishtirok etish imkoniyatini beradi, tarix va adabiyot darlarini o'qitish uchun "hamkorlikda ishlash" (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasining taklif qilingan birinchi tarkibiy elementi – bu "o'zaro ijobiy munosabatdir.[2] Agar o'quvchilar berilgan vazifani bajarishda guruhdagi har bir a'zoning muvaffaqiyati muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunsalar, guruh a'zolari orasida ijobiy o'zaro munosabat shakllanadi. Natijada, guruh a'zolari vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun bir-birini qo'llab-quvvatlashi kerakligini tushunib yetadilar. Guruh a'zolari topshiriqni bajarish davomida o'z vazifasini tushunib bajarishsa shu bilan birgalikda guruh muvaffaqiyati uchun boshqa guruh a'zolariga yordam bera olishsa bu o'zaro ijobiy munosabatni anglatishi, shaxsiy javobgarlikni o'zaro ijobiy munosabatning ajralmas bir qismi ekanligidan dalolat beradi.

Agar o'quvchilar topshiriqni bajarishda guruh a'zolarini ularni qo'llab-quvvatlashga harakat qilishsa, individual javobgarlik bir vaqtning o'zida avtomatik tarzda sodir bo'ladi.

Tadqiqotchi N.Dilovaning fikricha, hamkorlikka asoslangan pedagogika o'qituvchi hamda o'quvchilar birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim bo'lib, bu jarayonda jamoaning ijodiy quvvatlari va faoliyat samaradorligi namoyon bo'ladi[3]. Yangi maqsadlar ro'yobga chiqarish imkoniyati ta'minlanadi. Bu maqsad – o'quvchilar jamoasini ularning kuchlari yordamida qo'shimcha ijodiy natijani qo'lga kiritishga o'rgatishdan iborat.

Hamkorlik pedagogikasi yangi vositalar bilan kompyuter texnikasi yordamida muloqot jarayonini optimallashtiradi hamda axborotli mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Shuning uchun ham, hamkorlik pedagogikasi ta'lim jarayonida qo'llash uchun o'quv materiallariga ishlov berishda yangi ta'lim metodlaridan foydalaniladi. Shu maqsadda hamkorlik pedagogikasi bir qator fan sohalari bilan kesishadi. Xususan, ijtimoiy muloqot nazariyasi, axborot texnologiyalari, mantiq, tilshunoslik, shuningdek, shaxsiy kuzatishlar, tajriba-sinov natijalari, psixologiyaga oid bilimlar mavjud.

Hamkorlik pedagogikasiga asoslangan ta'lim jarayoni o'quvchining shaxsi va uning ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishni markaziga qo'yadi. Bu yondashuv o'quvchida jamoaviylik tuyg'usini, o'z guruhdoshlarining intellektual va axloqiy hayotga singgan fazilatlarini bilan qadrlash hissini, shuningdek, jamoa ichida o'zi uchun topish mumkin bo'lgan munosib maqom bilan iftoralanganlik hissini tarbiyalaydi.

Mazkur pedagogik modelning asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchini umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash hamda rivojlantirishdir. Badiiy-tarixiy asarlar esa ushbu maqsadga erishish uchun noyob manba va vosita hisoblanadi. Ularning mazmunida milliy ruh, tarixiy shaxs va umumbashariy axloqiy mezonlar o'ziga xos badiiy ifodani topadi. Adabiy matn, didaktik mashqlar va o'quv topshiriqlari vositasida o'quvchilarga nafaqat bilim, balki ma'naviy-axloqiy mezonlar va milliy his-tuyg'ular ham singdiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar tizimi:

1. Dilova N. "Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" (qo'llanma). 2021-yil/
2. Sandra L. Renegar. All of us Know more than each of us: cooperative learning in higher education // Active Learning Strategies for the Higher Education. – JATEPress, Szeged, 1997. – Pp. 47 – 57.
3. Nelson L.M. Collaborative problem solving // In C. M. Reigeluth (Ed.), Instructional design theories and models: A new paradigm of instructional theory. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum. – 1999. – P. 241-267.
4. Maller J.B. (1929) Co-operation and Competition: An Experimental Study in Motivation. Teach. Coll.
5. May M.A., Doob L.W. (1997) Competition and Cooperation. New York: Social Science Research Council.
6. Lewis H.B. An Experimental Study of the Role of Ego in Work. I. The Role of the Ego in Cooperative Work // Journal of Experimental Psychology. 1994. – № 34. – Pp. 113 – 127.